

Chingiz Aytmatovning “Kassandra tamg`asi” romanida sotsiologik qarashlar talqini

BuxDU 2-kurs magistranti

Maftuna O`rinova

Beqiyos tafakkur sohibi, nuqtadon adib Chingiz Aytmatovning har bir asari olam va odam dard-u iztirobini kuylagani, ijtimoiy g`oyalarga yog`rilgani bois jahon adabiyotining to`rida: butun dunyo sevadi, mutolaa qiladi. O`zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov: “Muallifning har bir asarini oradan vaqt o`tishi bilan qayta-qayta o`qiging keladi va har gal yangi va yangi jihatlarini kashf etasan”, – deya ta`kidlagan edi. Adibning falsafiy romani “Oxirzamon nishonalari (Kassandra tamg`asi)” haqida ham shunday deyish mumkin. Chingiz Aytmatov asarlarini sinchkovlik bilan tahlil qilish mobaynida yana bir yangi qirra – ularda ilm-fan yutuqlarining badiiy haqiqatga evrilish hodisasini uchratish mumkin. “Kassandra tamg`asi” romanini sotsiologik qarashlar nuqtayi nazaridan tahlilga tortsak, fikrimiz isboti yanada konkretlashadi.

“Sotsiologiya lot.soci(etos) – jamiyat + yun.logos – fan, ta`limot ma`nosini anglatadi. U jamiyat haqidagi va ayrim ijtimoiy tartibotlar, jarayonlar, ijtimoiy guruhlar, shaxs va jamiyat munosabatlari, kishilarning o`zaro muomala qonuniyatlari haqidagi fan hisoblanadi”[3,557]. Asardan bunga misollarni talaygina uchratish mumkin.

Bir tomonda “Menga Yerda joy yo`q ekan” deb kosmosga ketishga majbur bo`lgan, o`zini endilikda samoviy rohib deb e`lon qilgan, aslida buyuk genetik olim, ona qornidagi homilaning tug`ilmasidanoq kelajagini bashorat qiluvchi zondaj nurlar ixtirochisi Andrey Krilsov(Filofey), ikkinchi tomonda butun umri davomida jamiyat manfaatlari uchun xizmat qilgan, bashariyat axloqsizligi sabab insoniyat halokat yoqasiga kelib qolajagini prognozlagan futurolog olim Robert Bork, uchinchi tomonda esa qanday bo`lsa-da, saylovda yutib chiqish va prezident bo`lish orzusida yonayotgan quv, ayyor, shuhratparast Oliver Ordok kurash maydonida. Qizig`i shundaki, bu kurashda taqdir hukmi biroz adolatsizlik qilgandek...

Bolalar uyida tarbiya topgan Andrey Krilsov o`ta zehnli bo`lib ulg`ayadi, tibbiyot institutini tamomlab, akademik darajasiga yetadi. Uni o`ziga ohanrabodek chorlagan hodisa bu insonning yaralishi: ona qornida embrion bo`lib shakllangandan tortib, o`sishi, oziqlanishi va nihoyat dunyoga kelishi edi. Ayni shu tabiat mo`jizasi olimni ota-ona, qarindosh-urug`i bo`lmagan, faqat kompartiya uchun xizmat qiluvchi manqurtlar – X zurriyotlarni yaratishiga turtki bo`ldi. Qilmishining fojia ekanini juda kech anglagan olim avval xotinidan, so`ng uning

so`ngan, majruh insoniy hislarini yana uyg`onishiga sabab bo`lgan mahkuma ayol Runadan ayrildi. Endi genetik qonunlarni ham unutgan akademik yerda yashay olmas edi. U bosh olib kosmosga ketishga qaror qiladi. Qilgan xatolariga badal sifatida, gunohini yuvish maqsadida Filofey jamiyat uchun kelajakda xavf tug`dirishi mumkin bo`lgan avlodni tug`ilmasdan turib aniqlash yo`lini topdi. Olim yaratgan zondaj nurlar homilaning ilk haftasidayoq ona peshonasida qizg`ish dog` ko`rinishida signal beradi. Bu inson zurriyodining tug`ilishdan bosh tortishi, qismati oldida o`jizlik qilib, jamiyat tanazzuliga sabab bo`lishdek gunohdan tiyilishi edi. Chunki bu homila dunyo yuzini ko`rgach, albatta, yo Gitler, yo Chikatillodek qonxo`r, bugunga tabdil qiladigan bo`lsak, nafs ammora yo`lida vatanini sotishga tayyor xoin-u munofiq, diniy ekstremizm, terrorizm yo`lida olg`a boruvchi “zobit” bo`lishi tayin edi. Filofey insoniyatni, jamiyatni halokat yo`lidan qaytarish yo`lini topgandek edi go`yo. Xabarni tezda Yerga bildirish kerak edi, shu bois rohib Rim papasiga buyuk kashfiyot to`g`risida maktub yo`lladi. Ushbu maktubni chop etish hamda insoniyatga yetkazish “Tribyun” gazetasi chekiga tushdi. Butun bani bashar sarosima va qo`rquv ostida. Baski, shunday ekan, peshonasida signal paydo bo`lgan ona farzandidan voz kecha oladimi? Muqaddas bitiklarda ifodalangan “Uninglar, o`singlar, o`zingizdan ko`payinglar”, “Ummatlarimning ko`pligi bilan faxrlanaman” qabilidagi kalomlarga mutlaqo zid bo`lgan kashfiyot taqdiri nima bilan tugaydi? Barcha shu kabi savollar girdobiga g`arq bo`layotgan bir paytda jamiyat uchun o`ta muhim siyosiy hodisa SAYLOV jarayoni boshlanayotgan edi.

Nomzodlarning kim o`zarga yaxshi ma`nodagi bellashuvida faqat va faqat yutishni maqsad qilgan Oliver Ordok obrazi asarning shu lavhalarida namoyon bo`ladi.

Oliver Ordok bir paytlar futurolog olim Robert Bork bilan bir dorilfununda tahsil olgan qadrdon do`st, bugun prezidentlikka nomzod sifatida siyosatchilar bilan kurashishga bel bog`lagan, fahm-farosatli, zukko va har qanday vaziyatdan mo`tadil chiqa oluvchi notiq ham edi. Ordok dastlab kasaba uyushmasi, so`ngra ekologik harakat sohalarida amallarga mindi, teleekranlarda va matbuot sahifalarida ko`rindi, anchagina qobiliyatli ekanligini namoyish qildi. Qizig`i shundaki, uning yuzida oqish-kulrang dog`lar bo`lib, hayotda muvaffaqiyatlarga erishgani sari o`z-o`zidan yo`qolib ketdi. Bu haqda raqiblaridan biri (vrach) shunday deydi: “Ordokning yuzidagi dog`lar uning shuhratparast orzu-istaklarining, hokimiyatga bo`lgan chanqoqligining ruhiy ko`rsatkichidir. Agar taqdir kulib boqmaganda edi, uning butun nimjon badani boshidan oyog`igacha ana shunday antiqa dog`lar bilan qoplanar, u xuddi shu zaylda go`rga ketgan bo`lur edi”[1,69] Ta`kidlash joizki, Ordok venger tilida “shayton” degan ma`noni bildiradi. Shaytonga xos bo`lgan fazilatlar Oliver tabiatini ham “bezab” turardi. Soat oltidan sakkizgacha “Alfa-Beysbol”da bo`ladigan saylovoldi mitingda

Oliverga bu fazilati juda qo'l keldi. Tabiiyki, hammaning diqqat markazida bo'lgan olamshumul hodisa – Filofey kashfiyoti haqida bo'lajak prezidentga mitingda savollar yog'dirilishi tayin edi. Buni oldindan sezgan nomzod qanday bo'lmasin bu hodisaga aqlli fikr bildirish maqsadida o'sha qadrdon do'sti endigina Yevropa safaridan qaytgan Robert Borkka murojaat qildi.

Asarda Robert Bork obrazi Filofey maktubidan oldingi o'rinlarda uchray boshlaydi. Yevropada o'tkazilgan navbatdagi konferensiyadan qaytayotgan olimni jamiyat, uning taqdiri, taraqqiyotning yangi yo'llari hamda shakllarini izlash, insonlarning yangicha tafakkur va hayot tarziga o'tishlari haqidagi fikrlar qiynardi, shular haqida umrining "Shoh asari"ni yaratmoqchi edi. Bork shunday xayollar og'ushida Atlantika ustidan uchib borar ekan, ko'p bora tushida ko'rgan kitlar galasini – favqulodda manzaraning guvohi bo'ldi: "Kitlar osmonda uchib ketayotgan turnalar kabi o'tkir uchburchak hosil qilib suzib borishar edi. Yigirmatachalar chamasi kit. Samolyot tekis ucha boshladi, lekin pastda kitlar hamon suzib ketayotgan edi. Kitlar to'lqinlarni yorib o'tib, boshlari uzra favvoralar otib, bir qarasang okean qa'riga sho'ng'ib ketar va yana tog'day tanasi bilan suv yuzasiga suzib chiqardi"[1,22]. Bu manzara sirli kuch-qudratga ega san'at sifatida kishini o'ziga mahliyo qiladi. Ammo kitlar sayohatining yakuni fojia edi. Ular qirg'oqqa o'zini otib halok etish uchun yo'lga tushgan edilar. Yaqinda televideniye orqali xuddi shu manzara sodir bo'lgani haqida ma'lumot efirga uzatildi. Haligacha fanga noma'lum bo'lgan jumboqqa faylasuf yozuvchi Chingiz Aytmatov Robert Bork siymosida quyidagicha javob beradi: "Kitlar, aftidan, lovullab alanga olgan o'rmon yong'inlari uchun okeanda turib bezovta bo'ladi, tog' ko'chkilari ro'y bersa, muzliklar harakatga kelib, yo'lidagi hamma narsani yakson qilib ketsa, iztirob chekadi, lekin inson xulqidagi nopokliklarga, shavqatsiz va dahshatli yovuzliklarga chiday olmaydi, dunyoviy aql egasi bo'lgan odamda halokatga olib keladigan ehtirolarning junbushga kelishiga bardosh bera olmaydi"[1,62]. Demak, kitlarning yoppasiga o'zini halok qilishi jamiyatda urchiyotgan axloqsizlik, faxsh, o'g'rilik, talonchilik, insofsizlik, noqonuniy xatti-harakatlar(odam savdosi, narkobiznes, terrorizm)ga qarshi tabiatning isyoni ekan-da! Aytmatov ta'biri bilan aytganda, "dunyoviy aqlning" inqirozga yuz tutishi, bunga sabab ham yana o'sha aql sohiblarining o'zlari – insonlardir. Asarda Filofeyning xati orqali ham shu fikr isbotini ko'rish mumkin: "Bizga zarba berayotgan taqdir qasirg'alariga o'zimiz sababchi emasmikinmiz?"[1,34]. Homilador ayol peshonasida qizg'ish dog' o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi: "Yillar, asrlar o'ta genlarda kompyuter xotirasidagi kabi nimaiki to'plangan, jamg'arilgan bo'lsa, ana shu hodisada hammasi yuz ko'rsatadi"[1,34]. Filofey kashfiyotini hazm qila olmagan olomonning qo'rquv va sarosimada qolish sababi ham shu edi. Mazkur hodisani to'g'ri tushungan, Filofeyni, uning insoniy g'oyasini butun vujudi bilan his qila olgan yagona shaxs,

keyinchalik olomon unga “Filofeyning yerdagi aygʻoqchisi” deb nom bergan Robert Bork edi. Shuning uchun ham dono siyosatchi Ordok Filofeyga ishonish yoxud ishonmaslik borasida unga murojaat qildi: “Shunday ekan, sen, Robert, Filofeyning maktubini qoʻllab-quvvatlashni maslahat berasanmi?”[1,78].

Nihoyat miting boshlandi. Unda Oliver Ordok oʻz dasturini himoya qilish uchun soʻz boshlagan edi ham, saylovchilar kutilgan savol bilan murojaat etishdi: “Mister Ordok, – jarangladi bir ayolning ovozi, – Men Anna Smitman, maktab oʻqituvchisiman, – kosmosdagi rohib Filofeyning “Tribyun” gazetasida bosilgan maktubi haqida nima deya olardingiz?”[1,109]. Bu vaziyatda dastlab u Filofeyning signallarini yaqinlashib kelayotgan falokatdan ogohlantirish deb tushunish kerakligini taʼkidladi. Ammo bu fikrni rad etgan, qoʻzgʻalgan olomon Ordok dunyoqarashini ham oʻzgartirib yubordi: “Bu hech ham mubolagʻa emas, ishonig, bu insoniyatga qarshi fitnadir”[1,120]. Endi u Filofeyni insoniyatga, ruhiyatga, sivilizatsiyaga tajovuz qilganlikda aybladi va “burni ostidan narini koʻra olmaydigan” olomonning ishonchiga, hurmatiga sazovor boʻldi. Bir soʻz bilan aytganda, Oliver Ordok obrazida hokimiyat, shuhrat, nafs yoʻlida oʻz eʼtiqodini-da unutadigan munofiq kimsalar timsoli mujassam. Ayni shunday shaxslar(ularni olomon desak, toʻgʻriroq boʻladi) insoniyat, jamiyat, taraqqiyot tanazzul ostida qolishining oldini olmoqchi boʻlgan Filofey(Andrey Krilsov) hamda Robert Borklarning halokatiga sabab boʻldi. Oʻzini – gʻoyalarini tushunmaganliklari sabab ochiq kosmosga gʻarq boʻlgan samoviy rohib, uning yerdagi josusiga chiqarilgan jamiyatshunos olim vahshiylarcha kaltaklanib, mahv etildi.

Yuqoridagi tahlillardan koʻrish mumkinki, Chingiz Aytmatovning “Oxirzamon nishonalari” romanida jamiyatshunoslikka doir gʻoyalar ilgari surilgan. Filofey, futurolog olim Robert Bork jamiyat, insoniyat kelajagi uchun xizmat qiluvchi obrazlar boʻlsa, Oliver Ordok faqatgina shaxsiy manfaatlarni ustun qoʻyguchi xudbin qahramondir. Asarni oʻqir ekanmiz, mutafakkir yozuvchi bizga insonshunoslik ilmidan saboq berayotgandek tuyiladi. Har birimiz, eng avvalo, shaxs sifatida jamiyat uchun masʼulligimiz, oʻz xatti-harakatlarimizga mustaqil javob bera olishimiz, umumxalq manfaatlari uchun xizmat qilmogʻimiz lozim. Shunday qilinsagina, taraqqiyot bardavomligiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Айтматов Ч. Охирзамон нишоналари. –Т.:Ўзбекистон миллий кутубхонаси. – 2007. – 390 б.
- 2.Рашидов А.Чингиз Айтматов олами. – Т.:Ўқитувчи. – 2011. – 256 б.
3. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Т.:Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 557-б, “С” ҳарфи

